“Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJda yuz bergan baxtsiz hodisa yuzasidan RASMIY MA‘LUMOT

// 18 October 2022 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/indorama-kokand-fertilizers-and-chemicals-rasmiy-malumot



Joriy yilning 17-oktabr kuni soat 11:10 larda Farg‘ona viloyatida joylashgan “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJda baxtsiz hodisa yuz bergan. Unga ko‘ra “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJ hamda “Metall Universal 777” MCHJ o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosan korxona hududida, jumladan, qadoqlash sexida amalga oshirilayotgan qurilish montaj ishlari jarayonida, o‘g‘it qadoqlash uskunasi bunkeri ostida metall konstruksiya qismlarini o‘rnatish jarayonida, bunker tayanchlarini kesish oqibatida bunker qulab tushgan. Natijada, “Metall Universal 777” MCHJ ishchisi qulab tushgan bunker ostida qolib, vafot etgan. Hozirda dastlabki ekspertiza va tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati